

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BOSHLANG`ICH PROFESSIONAL TA`LIMNING
FAN DASTURI**

Fan dasturining nomi: Chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlik

Ajratilgan soat: 60

Toshkent – 2020

Tuzuvchi: **T.Raxmanov**

Chilonzor tumani 1-son kasb-hunar maktabi
Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik
fani o'qituvchisi

Taqrizchilar: _____

PROYINXA

1. O'quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik
Ajratilgan soat	60 soat
Dasturning maqsadi	“Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik” fani, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
O'zlashtirish natijalari	Harbiycha odob-axloq, shaxsiy va jamoaviy gigiena qoidalariga qat'iy amal qiladi; Umumharbiy nizom talablariga amal qiladi; aloqa tarmoqlaridan foydalanganda muomala madaniyatiga amal qiladi; Mudofaa doktrinasi va “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o'tash to'g'risi”dagi qonunlarning mazmun mohiyatini anglaydi Vatan himoyasi yo'lida o'zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglaydi;
Bilimlar	Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlarini amaldagi me'yorlariga amal qilgan holda bajaradi; Labirint yo'laklaridan yugurib o'ta oladi; Kasb turini ongli va mustaqil ravishda tanlay oladi; Aholini ko'chirish (evakuatsiya) vaqtida tartib qoidalariga amal qiladi.
Ko'nikmalar	Tanani chiniqtirish, sog'lomlashtirish hamda uni tashqi ta'sirlardan himoya qila oladi; Favqulodda ogoh etuvchi signallar berilganda to'g'ri va tartibli harakatlana oladi;
O'quv rejasiga muvofiq bog'liq bo'lgan boshqa o'quv dasturining nomi	Jismoniy tarbiya
O'qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta'lim; A – Amaliy ta'lim; NA – Nazariy va amaliy ta'lim birgalikda tashkil etiladi;
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhda belgilangan o'qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O'quv dastur mazmuni

T/r	Bo'lim va boblar nomi	Jami	O'qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari				
1.	Mudofaa va harbiy xizmat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonun va qonunosti xujjatlari.	1	N, A	
2.	"Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni	1	N, A	
3.	Umumiy soatlar:	2	N, A	
2. Harbiy san'at tarixi				
4.	Jaloliddin Manguberдинin harbiy san'ati	1	N, A	
5.	Amir Temur armiyasining tarkibi va tuzulishi Jangovar tartib va jang olib borish taktikasi.	1	N, A	
6.	Amir Temurning asosiy harbiy yurishlari	1	N, A	
7.	Z.M. Boburning harbiy yurishlari	1	N, A	
8.	Qadimda bosqinchilarga qarshi kurashgan ajdodlarimizning jasorati	1	N, A	
9.	Jami soatlar:	5	N, A	
3. Umumharbiy tayyorgarlik				
10.	O'R QK Ichki xizmat nizomining asosiy tushunchalari	1	N, A	
11.	O'R QK Intizom nizomining asosiy tushunchalari	1	N, A	
12.	O'R QK Garnizon va qorovul xizmati nizomining asosiy tushunchalari	1	N, A	
13.	O'R QK Saf nizomining asosiy tushunchalari	1	N, A	
14.	Jami soatlar:	4	N, A	
4. Taktik tayyorgarligi.				
15.	O'R Qurolli Kuchlari. Qo'shin tarkibi va turlari.	1	N, A	
16.	Umumqo'shin jangining asoslari.	1	N, A	
17.	Askarning jangdagi harakati.	1	N, A	
18.	Razvedka.	1	N, A	
19.	Pozitsiyani niqoblash va muhandislik jihozlash.	1	N, A	
20.	Tank va piyodalarga qarshi minalar.	1	N, A	

21.	Joyda kartasiz orientirlash.	1	N, A	
22.	Jami soatlar:	7	N, A	
5. Otish tayyorgarligi.				
23.	O‘q-otar qurollarning mo‘ljallanishi,tuzilishi va taktik-texnik xarakteristikasi	1	N, A	
24.	F-1 li RGD-5 qo‘l granatarini mo‘ljallanishi, tuzilishi, ishlash tartibi va jangovar xususiyatlari.	1	N, A	
25.	Otish qoida va asoslari	1	N, A	
26.	Boshlang‘ich va o‘quv otish mashqlarini bajarish	1	N, A	
27.	Jami soatlar:	4	N, A	
6. Saf tayyorgarligi.				
28.	Saf usullari va safda qurolsiz harakatlar.	1	N, A	
29.	Guruh safi	1	N, A	
30.	Jami soatlar:	2	N, A	
7. Yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik .				
31.	Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligining maqsad va vazifasi.	1	N, A	
32.	Jami soatlar:	1	N, A	
33.	Жами	25		
8. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari (2 курс)				
34.	O‘zbekiston Respublikasining oliy harbiy ta‘lim muassasalari. Mamlakatimizdagi Oliy harbiy ta‘lim muassasalariga qabul qilish tartibi va qoidalari	1	N, A	
35.	Jami soatlar:	1	N, A	
9. Harbiy san‘at tarixi				
36.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an‘analari	1	N, A	
37.	Hozirgi zamonaviy bosqichda milliy qahramonlarimizning mavjudligi.	1	N, A	
38.	Jami soatlar:	2	N, A	
10. Taktik tayyorgarlik				
39.	Askarning jangdagi harakati.	1	N, A	
40.	Nazorat mashg‘uloti.	1	N, A	
41.	Joyda kartasiz orientirlash	1	N, A	
42.	Jami soatlar:	3	N, A	

11. Otish tayyorgarligi				
43.	Qo'zmalmas va paydo bo'luvchi nishonlarga joyidan turib o'q otish	1	N, A	
44.	Boshlang'ich va o'quv otish mashqlarini bajarish.	1	N, A	
45.	Jami soatlar:	2	N, A	
12. Saf tayyorgarligi				
46.	Qurolsiz turgan joyda va harakat chog'ida harbiycha salomlashish. Harakat paytida harbiycha salomga javob berish.	1	N, A	
47.	Saf usullari va safda qurolsiz harakatlar	1	N, A	
48.	Guruh safi	1	N, A	
49.	Jami soatlar:	3	N, A	
13. Harbiy-tibbiy tayyorgarlik				
50.	Jarohat, sinish va yaradorlarga birinchi yordam ko'rsatish.	1	N, A	
51.	Kuyish, yonish, muzlab qolganda birinchi yordam ko'rsatish.	1	N, A	
52.	Radiatsiya vaqtida shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish, zaharli moddalardan zararlanishdan ogohlantirish.	1	N, A	
53.	Jami soatlar:	3	N, A	
14. Fuqarolar himoyasi				
54.	Favqulodda vaziyatlar tushunchasini ta'rifi.	1	N, A	
55.	Atrof-muhitning inson organizmiga salbiy ta'siri.	1	N, A	
56.	Aholini favqulodda vaziyatlardan ogoh etish.	2	N, A	
57.	Zamonaviy ommaviy qirg'in qurollari va ulardan himoyalaniish.	2	N, A	
58.	Shaxsiy (individual) himoya vositalari.	3	N, A	
59.	Jami soatlar:	9	N, A	
15. Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik				
60.	Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik	2	N, A	
61.	Jami soatlar:	2	N, A	
16. Harbiy-tibbiy tayyorgarlik				
62.	Anatomiya va fiziologiya asoslari.	1	N, A	
63.	Dorishunoslik. Tibbiy ta'minot.	1	N, A	
64.	Jarohatlanganda (yaralanganda), shikastlanganda birinchi tibbiy yordam.	1	N, A	
65.	Ommaviy qirg'in qurollari qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam	1	N, A	
66.	Kuyganda, bahtsiz hodisalar yuz berganda birinchi tibbiy yordam	1	N, A	
67.	Asosiy kasalliklar va ularni davolash	1	N, A	

68.	Bemorlarga qarash, tibbiy muolajalarni bajarish	1	N, A	
69.	Harbiy gigiena asoslari .	1	N, A	
70.	Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya asoslari .	1	N, A	
71.	Sanitar instruktorining vazifasi va majburiyatlari	1	N, A	
72.	Jami soatlar:	10	N, A	
Jami:		35		
Jami soatlar:		60		

Mavzular mazmuni

1. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasini va “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi, “Mudofaa to‘g‘risi”gi Qonunlarning mazmuni va mohiyatini yetkazish;

Muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o‘tash tartibi, sharoitlari, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish tartibi va qoidalarini bo‘yicha tushunchalar berish;

o‘quvchi yoshlarimizda Vataniga, o‘z halqiga va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

Harbiy xizmatning huquqiy asoslari fani o‘qitilishi natijasiga ko‘ra, o‘rganuvchilar quyidagilarni bilishi kerak:

Vatanni himoya qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasini va “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi, “Mudofaa to‘g‘risi”gi Qonunlarning asosiy talab va tushunchalarini;

muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o‘tash tartibi, sharoitlari, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish tartibi va qoidalarini;

Harbiy qasamyodning mazmuni va mohiyatini.

USLUBIY KO‘RSATMA

Harbiy xizmatning huquqiy asoslari “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, nazariy mashg‘ulotlar asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida harbiy - vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida aks etgan o‘quv adabiyotlari, prezentatsiyali materiallar bilan to‘lik ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Mashg‘ulotni samarali o‘tishi uchun huquqiy ma‘lumotga ega mutaxassis, shuningdek, mahalliy harbiy boshqaruv organi xodimlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birgalikda, mavzuga doir, yoshlarni harbiy – vatanparvarlik tuyg‘ularini ortishiga xizmat qiladigan xujjatli va badiiy videoroliklardan keng foydalanish, nafaqadagi, qurolli tuzilmalarda faoliyat olib borayotgan ofitserlar, jamoat va davlat arboblari bilan uchrashuvlar va muzeylarga tashriflarni tashkillashtirish lozim.

1-Mavzu. Mudofaa va harbiy xizmat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonun va qonunosti xujjatlari.

1 - mashg‘ulot. (nazariy 1 soati). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. Mudofaa tushunchasi. Fuqarolarning mudofaa borasidagi majburiyatlari.

2-Mavzu. “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

2 - mashg‘ulot. (nazariy 1 soati). O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. Umumiy harbiy majburiyat tushunchasi va uning mohiyati. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish. Harbiy

xizmatga chaqirilishdan ozod etish. Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish. Fuqarolarning harbiy ro'yxatdan o'tish bo'yicha majburiyatlari.

2. HARBIY SAN'AT TARIXI

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

buyuk sarkarda ajdodlarimizning urush olib borish taktikasi va strategiyasi tarixi, harbiy san'atning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

tarixiy tajribalar misolida o'quvchilarni taktik fikrlash qobiyatini rivojlantirish;

yoshlarimizda Vataniga, o'z halqiga va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, faol xayotiy pozitsiyasi va e'tiqodini, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish, axborot-psixologik xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz hamda O'zbekiston mustaqilligini ximoya qilish uchun o'z jonidan ham kechgan milliy qaxramonlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish va buyuk tariximiz milliy urf odatlar, an'ana va qadriyatlarining xayotimizdagi o'rni va ahamiyati yoshlarga chuqur tushintirish, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Bilishi kerak:

o'rta asrlarda Sharqda harbiy san'atni rivojlanishini;

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zaxriddin Muhammad Bobur kabi davlat arboblari va sarkardalarni misolida urushni olib borish taktika va strategiyasini tarixini o'rganish;

zamonaviy bosqichda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Harbiy san'at tarixi "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy qismlaridan biri bo'lib, nazariy mashg'ulotlar asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida harbiy - vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida aks etgan o'quv adabiyotlari, prezentatsiyali materiallar bilan to'lik ta'minlangan bo'lishi kerak.

Mashg'ulotni samarali o'tishi uchun mavzuga doir, harbiy san'at tarixiga doir materialarni o'zida aks etgan xujjatli va badiiy videoroliklardan keng foydalanish, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Z.M. Bobur kabi buyuk sarkardalar misolida harbiy san'at tarixini o'rganish, shuningdek, "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi o'quv qo'llanmalardan keng foydalanish lozim.

Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun, darsdan tashqari vaqtlarda harbiy tarixiy muzeylarga tashrif buyurish, harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ushbu soha vakillari bilan uchrashuvlarni tashkillashtirish kerak.

1- Mavzu. Jaloliddin Manguberding harbiy san'ati.

1 - mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Jaloliddin Manguberding kurashi

2-Mavzu. Amir Temur davlati. A. Temur armiyasining tarkibi va tuzilishi

2 - mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Amir Temur armiyasining tashkil etishi va tuzilishi. Jangovar tartib va jang olib borish taktikasi. Qo'shinlarni jiplashishi va yig'ish. Qo'shinlarni boshqarish.

3 - Mavzu Amir Temurning asosiy harbiy yurishlari

1- mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Amir Temurning asosiy harbiy yurishlari . Sohibqironning sarkadalik noyob qobiliyati.

4- Mavzu. Z.M. Boburning harbiy yurishlari

1- mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Boburning Panipat va Sekridagi kurashi

5-Mavzu. Qadimda bosqinchilarga qarshi kurashgan ajdodlarimizning jasorati

1- mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Shiroq, To'maris va Spitamenlarning jasoratlari.

6-Mavzu. Nazorat mashg'uloti.

1- mashg'ulot. (nazariy 1 soati). O'tilgan 1-4 mavzular bo'yicha yozma nazorat ishi

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'tkazilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

3. UMUMHARBIY TAYYORGARLIK

3.1. O'R QK UMUMHARBIY NIZOMLARI

O'quv va tarbiyaviy maqsadi:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari mazmuni va uning tuzulishi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning xizmat olib borish tartibi, ularning o'quv va kundalik faoliyati bilan tanishtirish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari talablari asosida o'quvchilarni kundalik hayotida intizom va bajaruvchanlik, ishchanlik qobiliyatlarini shakllantirish; yoshlar orasida Vatan, harbiy qasamyodga, harbiy burchga sodiqlik kabi tuyg'ularini shakllantirish.

Quyidagilarni bilishi kerak:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomi, Intizom, Garnizon va qorovul xizmati va Saf nizomlarining asosiy mazmuni va talablari.

Quyidagilarni bajara olishi shart:

harbiy xizmatchilarni maishiy, o'quv, xizmat va kundalik faoliyatini tashkillashtirish davomida Umumharbiy nizomlari talablarini to'g'ri qo'llash va aniq bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy qismlaridan biri bo'lib, nazariy mashg'ulotlar asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar o'quv adabiyotlari, prezentatsiyali materiallar bilan to'lik ta'minlangan bo'lishi kerak.

Mashg'ulotni samarali o'tishi uchun mavzuga doir materialarni o'zida aks etgan xujjatli va badiiy videoroliklardan keng foydalanish, oldindan uyga vazifa tariqasida misol va nizom moddalarini belgilangan tarzda takrorlashni tashkillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Olingan bilimlarni mustahkashlash uchun, darsdan tashqari vaqtlarda harbiy qismlarga tashrif buyurish, harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ushbu soha vakillari bilan uchrashuvlarni tashkillashtirish kerak.

1.Mavzu. O'R QK Ichki xizmat nizomining asosiy tushunchalari.

1-Mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari. Harbiy unvonlar. Buyruq, uni berish va bajarish tartibi. Askar (matros) majburiyati. Ichki tartib va kun tartibi. Sutkalik naryad (umumiy tushunchalar), vzvod bo'yicha posbon majburiyati. Harbiy qasamyod.

2-Mavzu. O'R QK Intizom nizomining asosiy tushunchalari.

1-Mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Umumiy qoidalar. Rag'batlantirishlar, askar (matros)larga qo'llaniladigan rag'batlantirishlar. Intizomiy ta'zirlar, askar (matros)larga qo'llaniladigan intizomiy ta'zirlar. Harbiy jinoyatlar va javobgarlik turlari.

3-Mavzu. O'R QK Garnizon va qorovul xizmati nizomining asosiy tushunchalari

1-Mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Umumiy qoidalar. Qorovul va uning tarkibi. Soqchi va uning majburiyati.

4- Mavzu. O'R QK Saf nizomining asosiy tushunchalari.

1-Mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Saf va uning elementlari. Askarning saf va saf oldidagi majburiyati.

5-Mavzu. Nazorat mashg'uloti.

1-Mashg'ulot. (nazariy 1 soat). O'tilgan 1-4 mavzular bo'yicha yozma nazorat ishi.

4. TAKTIK TAYYORGARLIK

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

Qurolli Kuchlar tarkibi, uning vazifasi;
zamonaviy jang turlarini va ularning xarakteristikasini bilish;
askarning jang oldi va jang olib borishdagi majburiyatlarida ko'rsatilgan harakatlarni bajarish;

xujum va mudofaa jangida harakatlanish usul hamda amallarni bajarish;
kuzatish va razvedka qilish, xaritasiz mo'ljall olish va azimut bo'yicha harakatlanish amallarini bajarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Lokal qurolli to'qnashuvlar, axborot kurashlari, chet el armiyalarining qurol-aslahalari, jangovor texnikasi hamda zamonaviy qirg'in vositalariga oid ma'lumotlarga ega bo'ladilar, ularga qarshi kurashish usullarini o'rganadilar.

O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:
umumqo'shin jangi turlari, taktik tayyorgarlik va manevr turlarini;
motoo'qchi guruh tarkibi, vazifasi, qurollanishi, harbiy texnikasi hamda guruhning jangovor imkoniyatlarini;

askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlarini;
hujum va mudofaa jangida harakatlanish tartibini;
o't ochish turlarini;
xandak (okop) qazish, uni jihozlash va niqoblash tartibini;
kuzatuvchi askar sifatida, shuningdek, ilg'or (dozor) sifatida harakatlanishni;
joyda xaritasiz mo'ljall olish va azimut bo'yicha harakatlanish tartibi va usullarini;
tankka va piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili, jangovor xususiyatlari, ularni joylashtirish, niqoblash va zararsizlantirish tartibini;
zamonaviy uchuvchisiz uchish vositalari, raketa qurilmalari, aloqa vositalarini;
axborot kurashlarining kelib chiqish sabablari, ularni qo'llash usullari va vositalarini;
lokal qurolli to'qnashuvlar haqida tushunchalarni va ularga olib keluvchi sabablarni;
chet el armiyalarining harbiy samolyotlari va vertolyotlari, o'qotar qurollari va jangovor texnikasining imkoniyatlarini;

shartli dushmanning harbiy samolyotlari, vertolyotlari, zirhli texnikasi bilan kurashish usullari va vositalarini;

shartli dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollari hamda zamonaviy, oddiy qirg'in qurollari qo'llanganida ulardan himoyalalanish usullarini.

O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak:

otish va kuzatish uchun joy tanlash;
xandak (okop) qazish, uni jihozlash va niqoblash;
belgilangan maydonda kuzatuv olib borishni, joy atrofidagi jismlarga nisbatan nishonlarning joylashuvini aniqlash hamda kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish;
qo'l granatalarni qo'llash;
tankka qarshi minalarni o'rnatish, ular o'rnatilgan joylarni aniqlash va guruh tarkibida mina maydonlaridan yo'l ochib o'tish;
askarning jangdagi harakatlari, usullari va amallarini to'g'ri bajarish;
kuzatuvchi askar va ilg'or bo'linma (dozor) sifatida harakatlanish;
shaxsiy himoya vositalarini qo'llash;
-guruh tarkibida harakatlanish;
xaritasiz mo'ljall olish, azimut bo'yicha harakatlanish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Taktik tayyorgarlik "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy bo'limi hisoblanadi. U o'rganuvchilarni jangovar va dala sharoitiga mos ravishda amaliy ko'nikmalarni olishiga xizmat qilishi kerak.

Taktik tayyorgarlik boshqa fanlar bilan uzviy aloqador bo'lishi kerak. Taktik tayyorgarlikda o'rganuvchi mashg'ulotlar orqali jangda amaliy harakatlarni olib borish bo'yicha malaka va bilimni oshirib boradi.

Mashg'ulotlarni samarali o'tilishi uchun vaziyatni tez o'zgaradigan, qiyinchiliklar tug'diradigan, maxsus vositalar bilan jihozlangan joy yoki hudud bo'lishi kerak.

Dushman bevosita OQQlarni qo'llaganda, o'rganuvchilarni o'z vaqtida himoyalalanish tadbirlarini tashkillashtirishni o'rgatish lozim.

Bevosita o'rganuvchilarni kuzatuvchi bo'lib, dushman aviatsiyasi, artilleriyasi, tank va zirxli texnikalari, hamda OQQ qo'llaganda uning belgilarini aniqlash va mustaqil qaror qabul qilishni

o'rgatish kerak bo'ladi.

Har bir o'quv savoli va elementni ko'rib chiqilganda qisqacha muhokama va o'rganuvchilarni kamchilik va yutuqlari yetkazib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar vaqtida har bir o'quv savoli qat'iy ketma – ketlikda, jang sharoitiga moslashtirilgan sharoitda, taktik vaziyat yaratilgan xolda olib boriladi. Agar o'quv savolini o'rganuvchilar bajara olmasa, yana shu o'quv savoli qaytariladi. Har bir o'quv savolini shaxsan mashg'ulot rahbari avval tushuntiradi va amaliy ko'rsatib bergan holda olib boradi.

Nazorat mashg'ulotlarini mashg'ulot rahbari o'g'il va qiz bolalarni imkon qadar birgalikda oldindan tayyorlangan joyda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'quv joyi o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1-o'quv nuqtasida o'g'il bolalar taktik taygarlikdan (harbiy topografiya fanidan) amaliy me'yorlarni va qizlar esa 2- o'quv nuqtasida yozma nazorat ishini topshiradi.

1-Mavzu: O'R Qurolli Kuchlari. Qo'shin tarkibi va turlari.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilishi. Qurolli Kuchlar tarkibi va qo'shin turlari. Harbiy okruglar.

2-Mavzu. Umumqo'shin jangining asoslari

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Jang haqida tushuncha. Zamonaviy umumqo'shin jangining tavsifi, maqsadi va turlari. Askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlari. Askarning shaxsiy qurollari va epikirovkasi. Motoo'qchilar guruhini tashkiliy tuzulishi, bajaridigan jangovar vazifalari, qurollari va jangovar imkoniyatlari

2-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Zamonaviy armiyalarning tanklari, zirhli mashinalari, o'ziyurar artilleriya, havo hujumi va uchuvchisiz uchish vositalari hamda raketa qurilmalari. Ularning taktik-texnik ko'rsatkichlari va zaif joylari. Ularga qarshi kurashish usullari.

3-Mavzu: Askarning jangdagi harakati.

1-mashg'ulot. Askarning mudofaadagi harakatlari. O't ochish marrasi (pozitsiya) ni tanlash va uni egallash. Yotib otish uchun okopni qazish, jixozlash va uni niqoblash.

4-Mavzu: Razvedka

1-mashg'ulot. Razvedka olib borish usullari. Kuzatuv uchun joy tanlash. Mahaliy joy va predmetlarni o'rganish. Joy va mahalliy predmetlarni ko'zdan kechirish tartibi. Kuzatuvchi va uning vazifasi.

5-Mavzu. Pozitsiyalarni muhandislik jihozlash va niqoblash.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Shaxsiy tarkib va jangovar texnikalar uchun okop va pana joylar. Muhandislik to'siqlarni mo'ljallanishi (portlovchi, portlamaydigan, aralash).

6-Mavzu: Tank va piyodalarga qarshi minalar.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Tank va piyodalarga qarshi minalarning mo'ljallanishi, umumiy tuzulishi va taktik-texnik xarakteristikasi.

7-Mavzu: Joyda kartasiz orientirlash.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Joyda orientirlashning maqsadi va usullari. Yo'nalish bo'yicha gorizont tomonlarini aniqlash. Joyda yo'nalishlarni aniqlash. Turli sharoitlarda joyda kartasiz orientirlashning o'ziga xosligi.

8-Mavzu: Nazorat mashg'uloti

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Razvedka yoki taktik tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni bajarish (ushbu Dasturning 3-ilovaga asosan).

5. Otish tayyorgarligi.

Otish tayyorgarligi bo'limida o'quvchilar o'qotar qurollar, qo'l granatalari, tankka, piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovar xususiyatlariga doir dastlabki bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. O'qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish, shuningdek, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab - asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek, otish qoidalari asoslarini o'zlashtiradilar, o'qotar qurollardan otish bo'yicha dastlabki o'quv mashqlarini bajaradilar. Qo'l granatalarini turli holatlardan ulotirish texnikasini o'rganadilar. Otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida, otish amaliyotini bajarishda xavfsizlik choralariga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:
otish mashg'ulotlarida xavfsizlik choralarini;

Kalashnikov avtomati va boshqa o'qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovor xususiyatlarini;

qo'l granatalarning tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovor xususiyatlarini;

o'qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab-asrashni;

nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullarini;

avtomatni otishga tayyorlash, undan qo'zg'almas hamda paydo bo'luvchi nishonlarga otish usullari va qoidalarini bilishi.

O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak:

otish mashg'ulotlarida xavfsizlik choralariga amal qilish;

avtomatni otishga tayyorlashni, undan qo'zg'almas va paydo bo'luvchi nishonlarga otish usullarini bajarish;

avtomatni noto'liq (to'liqsiz) qismlarga ajratish hamda yig'ish, uni tozalash va moylashni bajarish;

otish bo'yicha zamonaviy elektron trenajer (SKATT) moslamalaridan foydalanish;

otish va kuzatish uchun joy tanlash hamda uni jihozlash;

burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash;

qo'l granatalarni turli holatlardan uzoqlikka hamda aniqlikka uloqtirish;

boshlang'ich mashq shartlari bo'yicha o'qotar quroldan jangovar o'q bilan otish mashqini bajarish; kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o'q otish mashqlarini bajarish.

tayyogarligi mashg'uloti maxsus tayyorlangan sinf, o'q otish tirlari, otish shaharchalari va umumqo'shin poligonlarida o'tkaziladi.

Otish tayyorgarligidan mashg'ulot o'tish uchun bevosita o'quv o'qotar qurollar, o'quv – imitatsion qo'l granatalari, turli maket, asbob, agregat, chizma, elektrlashtirilgan plakat va o'qitish uchun kerakli texnik vositalardan keng foydalanish kerak.

O'quv savollarini og'zaki tushuntirish vaqtida qurol va granatalarni ishlash tartibini amaliy ko'rsatgan holda tushuntirib berish kerak. Qurollarni sochish va yig'ishda ketma ketlikga e'tibor qaratish kerak.

Xavfsizlik choralariga qat'iy rioya etish uchun mashg'ulot boshida qurol, o'quv qo'l granatalari va o'q-dorilarni ko'rikdan o'tkazish kerak.

Quroldan otishni o'rgatish davomida o't otish mashqlari va tayyorlov mashqlarini bajarish maqsadga muvofiqdir. Otish qoidalarini o'rgatish uchun o'q otishni olib borish usullarini tushuntirish va o'quvchiga qurol biriktirish orqali olib boriladi. O'quvchini otish qoidalarini chuqur anglab yetishi va o'q otish masalalarini yecha olishiga erishish lozim.

Amaliy otish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun tashkillashtirish qurolni otishga tayyorlash, kelib chiqqan nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, otish qoidalarini o'rganuvchi tomonidan chuqurroq anglab yetishi, amaliy me'yorlarni bajarish, nishonlarni kuzatish va razvedka qilish, ulargacha bo'lgan masofa va otishdan keyin natijalarni kuzatishni amalga oshirish uchun maxsus o'quv joyi tashkillashtiriladi.

1-Mavzu. O'q-otar qurollarning mo'ljallanishi, tuzulishi va taktik-texnik xarakteristikasi.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). O'q-otar qurol va o'q-dorilar bilan muomila qilayotganda xavfsizlik choralari. Kalashnikov avtomati (RPK-74 qo'l pulemyoti) ning vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovor xususiyatlari. Kalashnikov avtomatning asosiy qism va mexanizmlari hamda ularning vazifasi.

2-Mavzu. F-1li RGD-5 qo'l granatalarini mo'ljallanishi, tuzulishi, ishlash tartibi va jangovar xususiyatlari

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). F-1 i RGD-5 qo'l granatalarini mo'ljallanishi, tuzulishi, ishlash tartibi va jangovar xususiyatlari. Granatani jangovar holatdan saqlov holatiga o'tkazish. Oskolkali qo'l granatalaridan foydalanish vaqtidagi xavfsizlik choralari.

Mudofaa va hujum qo'llaniladigan qo'l granatalarini uloqtirish 1 va 3 mashqlarni amaliy bajarish. (1-ilovaga asosan).

3-Mavzu: Otish qoida va asoslari.

1-mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). O'q otish va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri. O'qning traektoriyasi. To'g'ri otish, yashirin, yakson qilinadigan va o'lik maydon va ularning amaliy tushunchalari.

4-Mavzu: Boshlang'ich va o'quv otish mashqlarini bajarish.

1-mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). Pnevmatik miltiqdan 1 va 2 otish mashqi, AK-74 qurolidan dastlabki otish mashqining bajarish tartibini o'rganish va otish vaqtidagii xavfsizlik qoidalari.

Qo'zmalmas nishonlarga joyidan turib o'q otish. Kalashnikov avtomatidan (FEST DK-440 yoki PKST trenajyori va pnevmatik miltiq). dastlabki otish mashqini bajarish

5-Mavzu: Nazorat mashg'uloti.

1-mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). *o'g'il bolalar:* otish tayyorgarligidan 1me'yorni bajarish (qo'l granatasini uloqtirish) (ushbu Dasturning 3-ilovaga asosan).

qizlar: Otish tayyorgarligidan 12 va 13 me'yorlarni bajarish. (ushbu Dasturning 3-ilovaga asosan).

6. Saf tayyorgarligi.

o'rganuvchilarni dastur hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Saf nizomi talablarini biladigan, yetarli safona qad qomat ega, saf usullarini ishonch bilan bajara oladigan qilib tayyorlash.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

O'R QK Saf nizomi umumiy tushunchalari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning saf va saf oldidagi majburiyatlarini yod olish;

safdagi o'z o'rni va saf usullarini bajarish tartibi.

O'rganuvchilar bajarishi shart:

safdagi o'z o'rniga tez va aniq borib turish, safda harakatlanish davomida tekislikni saqlash, interval va distansiyaga rioya etish, saf usullarini bajarish tartibi;

guruh tarkibida safda harakatlanish va komandalarni bajarish, safni yoyish va yig'ishni amalda bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Saf tayyorgarligi O'RQK Saf nizomi talablari asosida rejalashtiriladi va o'rganuvchilarni saf qomatini rivojlantirish va tashqi ko'rinishini to'g'irlashga xizmat qilishi kerak. Saf tayyorgarligi mashg'uloti jihozlangan saf maydonida o'tkaziladi.

O'rganuvchilarni saf tayyorgarligidan olgan bilimlari barcha rejadagi mavzular o'rganilgandan so'ng tekshiriladi va baholanadi.

1-Mavzu: Saf usullari va safda quolsiz harakatlar.

1-mashg'ulot. (*amaliy* 1 soati). Qad rostlab turish. "Saflan", "Rostlan", "Erkin", "To'g'irlansin", "Bosh kiyimlar yechilsin (kiyilsin)" komandalarini bajarish. Joy burilishlar. "O'ng-ga", "Chap-ga", "Ortga" komandalarini bajarish.

2-mashg'ulot. (*amaliy* 1 soati). Safda harakatlanish. "Qadam bos", "Rostlan", "Yugur", "Joyda qadam bos" komandalarini bajarish.

3-mashg'ulot. (*amaliy* 1 soati). Harakatda burilishlar. "O'ng-ga", "Chap-ga", "Ortga" "Ortga qadam bos", komandalarini bajarish.

2-Mavzu: Guruh safi.

1-mashg'ulot. (*amaliy*). Yoyiq va yig'iq saf. Saflanish, saf oldida, guruh saf bo'lib harakatlanayotganda beriladigan komandalar. Joyda va harakatda harbiycha salomlashish

3-Mavzu: Nazorat mashg'uloti.

1-mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). Quolsiz harakatlar va saf usullarini bajarish (saf tayyorgarligi uslubiyatiga asosan).

7. YO'NALTIRILGAN JISMONIY TAYYORGARLIK

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

chaqqonlik, kuch, tezlik va chidamlilik sifatlarini ushlab turish va rivojlantirish;

tashqi omillarga qarshi turish uchun organizmni chiniqtirib borish;

o'rganuvchilarning yuqori ahloqiy sifatleri va irodasini (ishonchlilik, g'alabaga bo'lgan hoxish, qat'iylik va boshqa) oshirish.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

jismoniy tayyorgarlikka qo'yilgan asosiy talablar;
jismoniy mashqlarni (me'yorlar) bajarish qoidalari;
xavfsizlikni ta'minlash usullari, jarohat olmaslikka yo'naltirish.

O'rganuvchilar bajara olishi kerak:

doimiy ravishda jismoniy kuch, chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirib borish;
tez yugura olish, to'siqlardan tez o'tish;
mazkur Dastur talablari doirasida qo'l yangi usullarini bajara olish;
jismoniy tayyorgarlik bo'yicha Qo'llanma (NFP-2012 yil) talablari asosida jismoniy mashqlarni bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik jang maydonida askarga kerak bo'ladigan harbiy amaliy yo'nalishdagi kuch, chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantiruvchi jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani doirasida o'tiladigan mashg'ulotlardan birii hisoblanadi.

O'rganuvchilarga mashg'ulotni tashkillashtirish jismoniy tayyorgarlik bo'yicha Qo'llanma (NFP-2012 yil) talablari asosida, umumiy ta'im maktablarining o'quv moddiy texnik bazasi va sport infratuzilmasidan foydalangan holda olib boriladi.

Bevosita mashg'ulot davomida maxsus o'quv moddiy bazasi va harbiy texnik anjomlardan foydalanish kerak bo'lganda tuman mudofaa ishlar bo'limi orqali harbiy qism bazasida mashg'ulot o'tkazish mumkin.

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlikda asosiy e'tibor o'rganuvchilarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni umumlashtirgan holda ularda sog'lom fikr va jismoniy chiniqish sifatlarini rivoltantirish, shuningdek, ularni O'R QK tarkibida xizmat qilishga tayyorlab borishga qaratiladi.

1-Mavzu: Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini maqsad va vazifasi.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Jismoniy tayyorgarlikning maqsad va vazifasi, uning irodani oshirishdagi roli.

2-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Majmuaviy harbiy-sport mashqlarini belgilangan me'yor va talablari. Me'yorlarni bajarish uchun ochkolarni yig'ish va hisoblash tartibi

8. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari

O'quv tarbiyaviy maqsadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi va "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o'tash to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risi"gi Qonunlarning mazmuni va mohiyatini yetkazish;

muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o'tash tartibi, sharoitlari, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi va qoidalari bo'yicha tushunchalar berish;

o'quvchi yoshlarimizda Vatanga, o'z halqiga va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

Harbiy xizmatning huquqiy asoslari fani o'qitilishi natijasiga ko'ra, o'rganuvchilar quyidagilarni bilishi kerak:

Vatanni himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi va "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o'tash to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risi"gi Qonunlarning asosiy talab va tushunchalarini;

muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o'tash tartibi, sharoitlari, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi va qoidalari;

Harbiy qasamyodning mazmuni va mohiyatini.

USLUBIY KO'RSATMA

Harbiy xizmatning huquqiy asoslari "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy qismlaridan biri bo'lib, nazariy mashg'ulotlar asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida

harbiy - vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida aks etgan o'quv adabiyotlari, prezentatsiyali materiallar bilan to'lik ta'minlangan bo'lishi kerak.

Mashg'ulotni samarali o'tishi uchun huquqiy ma'lumotga ega mutaxassis, shuningdek, mahalliy harbiy boshqaruv organi xodimlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birgalikda, mavzuga doir, yoshlarni harbiy – vatanparvarlik tuyg'ularini ortishiga xizmat qiladigan xujjatli va badiiy videoroliklardan keng foydalanish, nafaqadagi, qurolli tuzilmalarda faoliyat olib borayotgan ofitserlar, jamoat va davlat arboblari bilan uchrashuvlar va muzeylarga tashriflarni tashkillashtirish lozim.

2-Mavzu: O'zbekiston Respublikasidagi Oliy harbiy ta'lim muassasalari.

1- mashg'ulot. (*nazariy* 2 soati). Oliy harbiy ta'lim muassasalari. Ularning tarixi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari. Mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishlari. Mamlakatimizdagi Oliy harbiy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi va qoidalari.

9. Harbiy san'at tarixi

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

buyuk sarkarda ajdodlarimizning urush olib borish taktikasi va strategiyasi tarixi, harbiy san'atning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

tarixiy tajribalar misolida o'quvchilarni taktik fikrlash qobiyatini rivojlantirish;

yoshlarimizda Vataniga, o'z halqiga va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, faol xayotiy pozitsiyasi va e'tiqodini, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish, axborot-psixologik xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz hamda O'zbekiston mustaqilligini ximoya qilish uchun o'z jonidan ham kechgan milliy qaxramonlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish va buyuk tariximiz milliy urf odatlar, an'ana va qadriyatlarining xayotimizdagi o'rni va ahamiyati yoshlarga chuqur tushintirish, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Bilishi kerak:

o'rta asrlarda Sharqda harbiy san'atni rivojlanishini;

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zaxriddin Muhammad Bobur kabi davlat arboblari va sarkardalarni misolida urushni olib borish taktika va strategiyasini tarixini o'rganish;

zamonaviy bosqichda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Harbiy san'at tarixi "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy qismlaridan biri bo'lib, nazariy mashg'ulotlar asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida harbiy - vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida aks etgan o'quv adabiyotlari, prezentatsiyali materiallar bilan to'lik ta'minlangan bo'lishi kerak.

Mashg'ulotni samarali o'tishi uchun mavzuga doir, harbiy san'at tarixiga doir materialarni o'zida aks etgan xujjatli va badiiy videoroliklardan keng foydalanish, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Z.M. Bobur kabi buyuk sarkardalar misolida harbiy san'at tarixini o'rganish, shuningdek, "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi o'quv qo'llanmalardan keng foydalanish lozim.

Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun, darsdan tashqari vaqtlarda harbiy tarixiy muzeylarga tashrif buyurish, harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ushbu soha vakillari bilan uchrashuvlarni tashkillashtirish kerak.

6- Mavzu. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'anasi.

1- mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'anasi. Harbiy qasamyod va uning tarixi. Harbiy qismning jangovar bayrog'i.

2-Mavzu. Hozirgi zamonaviy bosqichda harbiy xizmatchilarimizning qahramonligi.

2-3- mashg'ulot. (*nazariy* 2 soati). Surxondaryo, Toshkent viloyatlari, Farg'ona vodiysi va respublikamizning boshqa hududlarida bo'lib o'tgan voqe'alar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini asrash yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar.

10.Taktik tayyorgarlik

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

Qurolli Kuchlar tarkibi, uning vazifasi;

zamonaviy jang turlarini va ularning xarakteristikasini bilish;

askarning jang oldi va jang olib borishdagi majburiyatlarida ko'rsatilgan harakatlarni bajarish;

xujum va mudofaa jangida harakatlanish usul hamda amallarni bajarish;

kuzatish va razvedka qilish, xaritasiz mo'ljal olish va azimut bo'yicha harakatlanish amallarini bajarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Lokal qurolli to'qnashuvlar, axborot kurashlari, chet el armiyalarining qurol-aslahalari, jangovor texnikasi hamda zamonaviy qirg'in vositalariga oid ma'lumotlarga ega bo'ladilar, ularga qarshi kurashish usullarini o'rganadilar.

O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

umumqo'shin jangi turlari, taktik tayyorgarlik va manevr turlarini;

motoo'qchi guruh tarkibi, vazifasi, qurollanishi, harbiy texnikasi hamda guruhning jangovor imkoniyatlarini;

askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlarini;

hujum va mudofaa jangida harakatlanish tartibini;

o't ochish turlarini;

xandak (okop) qazish, uni jihozlash va niqoblash tartibini;

kuzatuvchi askar sifatida, shuningdek, ilg'or (dozor) sifatida harakatlanishni;

joyda xaritasiz mo'ljal olish va azimut bo'yicha harakatlanish tartibi va usullarini;

tankka va piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili, jangovor xususiyatlari, ularni joylashtirish, niqoblash va zararsizlantirish tartibini;

zamonaviy uchuvchisiz uchish vositalari, raketa qurilmalari, aloqa vositalarini;

axborot kurashlarining kelib chiqish sabablari, ularni qo'llash usullari va vositalarini;

lokal qurolli to'qnashuvlar haqida tushunchalarni va ularga olib keluvchi sabablarni;

chet el armiyalarining harbiy samolyotlari va vertolyotlari, o'qotar qurollari va jangovor texnikasining imkoniyatlarini;

shartli dushmanning harbiy samolyotlari, vertolyotlari, zirhli texnikasi bilan kurashish usullari va vositalarini;

shartli dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollari hamda zamonaviy, oddiy qirg'in qurollari qo'llanganida ulardan himoyalaniş usullarini.

O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak:

otish va kuzatish uchun joy tanlash;

xandak (okop) qazish, uni jihozlash va niqoblash;

belgilangan maydonda kuzatuv olib borishni, joy atrofidagi jismlarga nisbatan nishonlarning joylashuvini aniqlash hamda kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish;

qo'l granatalarni qo'llash;

tankka qarshi minalarni o'rnatish, ular o'rnatilgan joylarni aniqlash va guruh tarkibida mina maydonlaridan yo'l ochib o'tish;

askarning jangdagi harakatlari, usullari va amallarini to'g'ri bajarish;

kuzatuvchi askar va ilg'or bo'linma (dozor) sifatida harakatlanish;

shaxsiy himoya vositalarini qo'llash;

guruh tarkibida harakatlanish;

xaritasiz mo'ljal olish, azimut bo'yicha harakatlanish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Taktik tayyorgarlik "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining asosiy bo'limi hisoblanadi. U o'rganuvchilarni jangovar va dala sharoitiga mos ravishda amaliy ko'nikmalarni olishiga xizmat qilishi kerak.

Taktik tayyorgarlik boshqa fanlar bilan uzviy aloqador bo'lishi kerak. Taktik tayyorgarlikda o'rganuvchi mashg'ulotlar orqali jangda amaliy harakatlarni olib borish bo'yichva malaka va bilimni oshirib boradi.

Mashg'ulotlarni samarali o'tilishi uchun vaziyatni tez o'zgaradigan, qiyinchiliklar tug'diradigan, maxsus vositalar bilan jihozlangan joy yoki hudud bo'lishi kerak.

Dushman bevosita OQQlarni qo'llaganda, o'rganuvchilarni o'z vaqtida himoyalaniş tadbirlarini tashkillashtirishni o'rgatish lozim.

Bevosita o'rganuvchilarni kuzatuvchi bo'lib, dushman aviatsiyasi, artilleriyasi, tank va zirxli texnikalari, hamda OQQ qo'llaganda uning belgilarini aniqlash va mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatish kerak bo'ladi.

Har bir o'quv savoli va elementni ko'rib chiqilganda qisqacha muhokama va o'rganuvchilarni kamchilik va yutuqlari yetkazib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar vaqtida har bir o'quv savoli qat'iy ketma – ketlikda, jang sharoitiga moslashtirilgan sharoitda, taktik vaziyat yaratilgan xolda olib boriladi. Agar o'quv savolini o'rganuvchilar bajara olmasa, yana shu o'quv savoli qaytariladi. Har bir o'quv savolini shaxsan mashg'ulot rahbari avval tushuntiradi va amaliy ko'rsatib bergan holda olib boradi.

Nazorat mashg'ulotlarini mashg'ulot rahbari o'g'il va qiz bolalarni imkon qadar birgalikda oldindan tayyorlangan joyda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'quv joyi o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1-o'quv nuqtasida o'g'il bolalar taktik taygarlikdan (harbiy topografiya fanidan) amaliy me'yorlarni va qizlar esa 2- o'quv nuqtasida yozma nazorat ishini topshiradi.

1-Mavzu: Askarning jangdagi harakati.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Dushman bilan yuzma-yuz kelish holatidan hujumga o'tish va birdan hujumga

o'tish usullari. Yayov tartibda hujumga o'tish

2-Mavzu: (amaliy 1 soati) **Nazorat mashg'uloti.**

3-Mavzu: Joyda xaritasiz orientirlash.

2-mashg'ulot. (nazariy 1 soat). Joyda turli sharoitlarda orientir (mo'ljal) olishning o'ziga xos xususiyatlari. Quyoshga nisbatan perdmelarning joylashishiga qarab gorizont tomonlarini aniqlash

11. Otish tayyorgarligi

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

Otish tayyorgarligi bo'limida o'quvchilar o'qotar qurollar, qo'l granatalari, tankka, piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovor xususiyatlariga doir dastlabki bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. O'qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish, shuningdek, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab - asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek, otish qoidalari asoslarini o'zlashtiradilar, o'qotar qurollardan otish bo'yicha dastlabki o'quv mashqlarini bajaradilar. Qo'l granatalarini turli holatlardan uloqtirish texnikasini o'rganadilar. Otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida, otish amaliyotini bajarishda xavfsizlik choralariga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

otish mashg'ulotlarida xavfsizlik choralarini;

Kalashnikov avtomati va boshqa o'qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovor xususiyatlarini;

qo'l granatalarning tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovor xususiyatlarini;

o'qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab-asrashni;

nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullarini;

avtomatni otishga tayyorlash, undan qo'zg'almas hamda paydo bo'luvchi nishonlarga otish usullari va qoidalarini bilishi.

O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak:

otish mashg'ulotlarida xavfsizlik choralariga amal qilish;

avtomatni otishga tayyorlashni, undan qo'zg'almas va paydo bo'luvchi nishonlarga otish usullarini bajarish;

avtomatni noto'liq (to'liqsiz) qismlarga ajratish hamda yig'ish, uni tozalash va moylashni bajarish;

otish bo'yicha zamonaviy elektron trenajer (SKATT) moslamalaridan foydalanish;

otish va kuzatish uchun joy tanlash hamda uni jihozlash;

burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash;

qo'l granatalarni turli holatlardan uzoqlikka hamda aniqlikka uloqtirish;

boshlang'ich mashq shartlari bo'yicha o'qotar quroldan jangovar o'q bilan otish mashqini bajarish;

kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o'q otish mashqlarini bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Otish tayyorgarligi mashg'uloti maxsus tayyorlangan sinf, o'q otish tirlari, otish shaharchalari va umumqo'shin poligonlarida o'tkaziladi.

Otish tayyorgarligidan mashg'ulot o'tish uchun bevosita o'quv o'qotar qurollar, o'quv – imitatsion qo'l granatalari, turli maket, asbob, agregat, chizma, elektrlashtirilgan plakat va o'qitish uchun kerakli texnik vositalardan keng foydalanish kerak.

O'quv savollarini og'zaki tushuntirish vaqtida qurol va granatalarni ishlash tartibini amaliy ko'rsatgan holda tushuntirib berish kerak. Qurollarni sochish va yig'ishda ketma ketlikga e'tibor qaratish kerak.

Xavfsizlik choralariga qat'iy rioya etish uchun mashg'ulot boshida qurol, o'quv qo'l granatalari va o'q-dorilarni ko'rikdan o'tkazish kerak.

Quroldan otishni o'rgatish davomida o't otish mashqlari va tayyorlov mashqlarini bajarish maqsadga muvofiqdir. Otish qoidalarini o'rgatish uchun o'q otishni olib borish usullarini tushuntirish va o'quvchiga qurol biriktirish orqali olib boriladi. O'quvchini otish qoidalarini chuqur anglab yetishi va o'q otish masalalarini yecha olishiga erishish lozim.

Amaliy otish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun tashkillashtirish qurolni otishga tayyorlash, kelib chiqqan nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, otish qoidalarini o'rganuvchi tomonidan chuqurroq anglab yetishi, amaliy me'yorlarni bajarish, nishonlarni kuzatish va razvedka qilish, ulargacha bo'lgan masofa va otishdan keyin natijalarni kuzatishni amalga oshirish uchun maxsus o'quv joyi tashkillashtiriladi.

1-Mavzu: Qo'zmalmas va paydo nishonlarga joyidan turib o'q otish.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Qo'zmalmas va paydo nishonlarga joyidan turib o'q otish.

2-Mavzu. Boshlang'ich va o'quv otish mashqlarini bajarish.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Pnevmatik miltiqdan 1 va 2 otish mashqi, AK-74 qurolidan dastlabki otish mashqining bajarish tartibini o'rganish va otish vaqtidagii xavfsizlik qoidalari.

12. Saf tayyorgarligi

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

o'rganuvchilarni dastur hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Saf nizomi talablarini biladigan, yetarli safona qad qomat ega, saf usullarini ishonch bilan bajara oladigan qilib tayyorlash.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

O'R QK Saf nizomi umumiy tushunchalari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning saf va saf oldidagi majburiyatlarini yod olish;

safdagi o'z o'rni va saf usullarini bajarish tartibi.

O'rganuvchilar bajarishi shart:

safdagi o'z o'rniga tez va aniq borib turish, safda harakatlanish davomida tekislikni saqlash, interval va distansiyaga rioya etish, saf usullarini bajarish tartibi;

guruh tarkibida safda harakatlanish va komandalarni bajarish, safni yoyish va yig'ishni amalda bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Saf tayyorgarligi O'R QK Saf nizomi talablari asosida rejalashtiriladi va o'rganuvchilarni saf qomatini rivojlantirish va tashqi ko'rinishini to'g'irlashga xizmat qilishi kerak. Saf tayyorgarligi mashg'uloti jihozlangan saf maydonida o'tkaziladi.

O'rganuvchilarni saf tayyorgarligidan olgan bilimlari barcha rejadagi mavzular o'rganilgandan so'ng tekshiriladi va baholanadi.

1-Mavzu: Turgan joyda va harakat chog'ida harbiycha salomlashish. Harakat paytida harbiycha salomga javob berish.

1-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Turgan joyda va harakat chog'ida bosh kiyim bilan yoki bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish. Harakat paytida harbiycha salomga javob berish.

2-Mavzu. Saf usullari va safda qurolsiz harakatlar.

2-mashg'ulot. (amaliy 1 soati)

Safdan chiqish va safga turish. Boshliq oldiga kelish va ketish

3-Mavzu Guruh safi.

3-4-mashg'ulot. (amaliy 2 soati). Guruhning saf tortishi. Guruhning yurish safiga va yoyiq safga saflanishi. Guruhni yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash. Saflanish, saf oldida, guruh saf bo'lib harakatlanayotganda beriladigan komandalar.

5-mashg'ulot. *Nazorat mashg'uloti.* (1 soati). Qurolsiz harakatlar va saf usullarini bajarish (saf tayyorgarligi uslubiyatiga asosan).

13. Harbiy-tibbiy tayyorgarlik

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

O'rganuvchilarga qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar va boshqa ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lganda o'zi va boshqalarga o'z vaqtida va to'g'ri birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar vaqtida va boshqa ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi;

qon ketishini to'xtatish, bog'lov usul va vositalari.

ommaviy qirg'in qurollari shikastlash omillari inson organizmiga ta'sir etganda harakatlanish tartibi.

O'rganuvchilar bajara olishi kerak:

qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar vaqtida va kuyganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; tananing turli qismlarida jarohat olganda bog'lov vositalarini qo'llay olishi; tananing turli qismlari ochiq va yopiq singan vaqtda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; quyosh va issiq urganda, inson tanasi muzlab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; sudralib yuruvchi va boshqa zaharli jonzotlar chaqqanda, zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Mashg'ulotning nazariy qismi mavzuga oid o'quv qo'llanmalar, plakatlar, maketlar, tibbiyot va texnik anjomlari bilan jihozlangan xonada o'tiladi. Mashg'ulotning amaliy qismi, xususan, birinchi yordam ko'rsatish savollari maxsus tayyorgarlikka ega tibbiyot xodimlari tomonidan tibbiyot muassasalarida o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-Mavzu. Jarohat, sinish va yaradorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

1-mashg'ulot. (*nazariy* 1 soati). Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni aniqlash. Jarohat turlari.

2-mashg'ulot (*amaliy* 1 soati). Qon ketganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Qon ketishini to'xtatish.

3-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Suyaklar singan va jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; Tomoq, ko'z, quloq va burun jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

2-Mavzu: Kuyish, yonish, muzlab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

1-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Kuygan vaqtda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Quyosh va issiq urganda, inson tanasi muzlab qolganda, zaharlanganda, sudralib yuruvchi va boshqa zaharli jonzotlar chaqqanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

3-Mavzu. Radiatsiya vaqtida shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, zaharli moddalardan zararlanishdan ogohlantirish

1-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Yadroviy portlash oqibatida zaharlangan vositalarni sanitar qayta ishlovidan o'tkazish. Davolash, evakuatsiya tadbirlari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkillashtirish.

14. Fuqaro muhofazasi

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

O'zbekiston Respublikasi hududida texnogen va tabiiy xarakterdagi ehtimoliy sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlar bilan tanishtirish. Xavfli tabiiy hodisalar: geologik va gidrometeorologik hodisalar. Yer silkinishi, ko'chishlar, suv toshqini, sel, qor ko'chishi, kuchli shamollar va boshqalar. Yaqinlashayotgan xavflarning belgilari;

texnogen xarakterdagi ehtimoliy sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni, ularni kelib sabablari va uni halq va hududga ta'sirini o'rganish;

texnogen xarakterdagi faqulodda vaziyatlarda ommaning harakatining tasnifi va ularni himoya qilish tartibi.

O‘rganuvchilar bilishi kerak:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi vazifasi va tashkiliy tuzilishini; favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish hamda harakat qilish

O‘zbekiston Respublikasi xududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va ularning yuzaga kelish sabablarini;

aholini va moddiy boyliklarni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilayotgan umumdavlat tizimining tuzilishini;

aholini ko‘chirish (evakuatsiya) qoidalari hamda usullari, shuningdek, zararlangan hududlarda favqulodda holatlarni bartaraf etish, qutqarish va boshqa shoshilinch chora-tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish usullarini;

korxonalar va muassasalarda (ta‘lim muassasalari) fuqaro muhofazasining tashkiliy tizimi hamda vazifalarini;

radiatsion, dozimetrik va kimyoviy razvedka asboblari vazifasi va tuzilishini;

fuqaro muhofazasi himoya inshootlarining tuzilishi va vazifasini;

favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish va ko‘chirish tartibini;

favqulodda vaziyatlarda o‘zini tutish qoidalari va muhofazalanish usullarini.

O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

favqulodda vaziyatlar chog‘ida to‘g‘ri va tezkor harakat qila olish;

favqulodda vaziyatlarda irodali, qat‘iyatli, intizomli, ruhan muvozanatli bo‘lish;

fuqaro muhofazasi signallari bo‘yicha to‘g‘ri harakat qila olish;

favqulodda vaziyatlarda shaxsiy va kollektiv himoya vositalaridan foydalanish;

radiatsion, dozimetrik va kimyoviy razvedka asboblaridan foydalanishni;

favqulodda vaziyatlar chog‘ida o‘ziga va jarohatlanganlarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko‘rsatish.

USLUBIY KO‘RSATMALAR

Yo‘naltirilgan fuqaro muhofazasi “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani doirasida o‘tiladi.

Bevosita mashg‘ulotlarni o‘tkazishda FVVning mahalliy organlarining o‘quv moddiy bazalaridan foydalanish mumkin.

O‘quvchilarda fuqaro muhofazasi tashkiliy tizimi va uning vazifalari, tinchlik va favqulodda vaziyatlar davrda o‘tkaziladigan umumdavlat mudofaa tadbirlariga doir bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

1- Mavzu: Favqulodda vaziyatlar tushunchasini ta’rifi.

1-mashg‘ulot. (*nazariy 1 soati*). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Favqulodda vaziyatlar vazirligini tuzish to‘g‘risida”gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi (FVDT)

2-Mavzu: Atrof-muhitning inson organizmiga salbiy ta’siri

1-mashg‘ulot. (*nazariy 1 soati*). Asosiy infeksiy va noinfeksiy kasalliklarga sabab bo‘luvchi xavfli omillar

3-Mavzu: Aholini favqulodda vaziyatlardan ogoh etish.

1-mashg‘ulot. (*nazariy 1 soati*). Aholini favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish. Aholiga favqulodda vaziyat haqida xabar berish va ogohlantirishning asosiy usullari. Ob’ekt (ta‘lim muassasalari) shaxsiy tarkibining “**DIQQAT HAMMAGA!**” signali bo‘yicha harakati va o‘zini tutish qoidalari.

2-mashg‘ulot. (*nazariy 1 soati*). Kechiktirib bo‘lmaydigan qutqaruv-tiklash ishlarini amalga oshirish tartibi, bajarish qoidalari va usullari. Qutqaruv-tiklash ishlarining asosiy vazifalari.

3-mashg‘ulot. (*nazariy 1 soati*). Radioaktiv va kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar hamda bakteriologik vositalar bilan zararlanganda to‘la va qisman sanitar ishlovini o‘tkazish. Kiyim-bosh, poyabzal hamda shaxsiy himoya vositalarini dezaktivizatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish usullari.

4-mashg'ulot. (*amaliy 1 soati*). Aholini ko'chirish (evakuatsiya) tamoyillari, usullari hamda vositalari. Ko'chirish tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirish va o'tkazish. Ko'chirish hay'atlari, yig'uv-ko'chirish punktlari.

4-Mavzu: Zamonaviy ommaviy qirg'in qurollari va ulardan himoyalani.

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Yadroviy qurol haqida tushuncha. Yadroviy portlash shikastlovchi omillarining tasnifi va ularning inson organizmiga ta'siri. Yadroviy portlash turlari.

2-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Kimyoviy qurol va uni qo'llash vositalari Jangovor zaharlovchi moddalarning turlari.

3-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Bakteriologik (biologik) qurol. Uning qo'llanganligi belgilari. Asosiy bakteriologik (biologik) vositalarning qisqacha tavsifi.

4-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Zamonaviy oddiy qirg'in vositalari.

5-Mavzu: Shaxsiy (individual), kollektiv himoya vositalari.

1-2-mashg'ulot. (*amaliy 3 soati*). Nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi shaxsiy vositalar, kollektiv himoya vositalari. Terini ximoya qilish vositalari.

6-Mavzu: Nazorat mashg'uloti.

1-mashg'ulot. Nazorat (1 o'quv soati). Fuqaro muhofazasi bo'yicha me'yorlarni bajarish (ushbu Dasturning 3 ilovasiga asosan).

15. Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

chaqqonlik, kuch, tezlik va chidamlilik sifatlarini ushlab turish va rivojlantirish; tashqi omillarga qarshi turish uchun organizmni chiniqtirib borish; o'rganuvchilarning yuqori ahloqiy sifatleri va irodasini (ishonchlilik, g'alabaga bo'lgan hoxish, qat'iylik va boshqa) oshirish.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

jismoniy tayyorgarlikka qo'yilgan asosiy talablar;
jismoniy mashqlarni (me'yorlar) bajarish qoidalari;
xavfsizlikni ta'minlash usullari, jarohat olmaslikka yo'naltirish.

O'rganuvchilar bajara olishi kerak:

doimiy ravishda jismoniy kuch, chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirib borish;

tez yugura olish, to'siqlardan tez o'tish;

mazkur Dastur talablari doirasida qo'l jangi usullarini bajara olish;

jismoniy tayyorgarlik bo'yicha Qo'llanma (NFP-2012 yil) talablari asosida jismoniy mashqlarni bajarish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik jang maydonida askarga kerak bo'ladigan harbiy amaliy yo'nalishdagi kuch, chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantiruvchi jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani doirasida o'tiladigan mashg'ulotlardan birii hisoblanadi.

O'rganuvchilarga mashg'ulotni tashkillashtirish jismoniy tayyorgarlik bo'yicha Qo'llanma (NFP-2012 yil) talablari asosida, umumiy ta'im maktablarining o'quv moddiy texnik bazasi va sport infratuzilmasidan foydalangan holda olib boriladi.

Bevosita mashg'ulot davomida maxsus o'quv moddiy bazasi va harbiy texnik anjomlardan foydalanish kerak bo'lganda tuman mudofaa ishlar bo'limi orqali harbiy qism bazasida mashg'ulot o'tkazish mumkin.

Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlikda asosiy e'tibor o'rganuvchilarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni umumlashtirgan holda ularda sog'lom fikr va jismoniy chiniqish sifatlarini rivoltantirish, shuningdek, ularni O'R QK tarkibida xizmat qilishga tayyorlab borishga qaratiladi.

1-Mavzu: Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik

1-2-mashg'ulot. (*amaliy 3 soati*).

To'siqlar yo'lagi elementlari va yengib o'tish tartibi bilan tanishish. Alohida to'siqlardan o'tish usullari va ularni yengib o'tishni mashq qilish. To'siqlar yo'lagidagi alohida to'siq va to'siqlar

majmuasidan o'tishni o'rganish, egallangan ko'nikmalarni takomillashtirish.

16. Harbiy-tibbiy tayyorgarlik

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

O'rganuvchilarga qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar va boshqa ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lganda o'zi va boshqalarga o'z vaqtida va to'g'ri birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish.

O'rganuvchilar bilishi kerak:

qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar vaqtida va boshqa ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi;

qon ketishini to'xtatish, bog'lov usul va vositalari.

ommaviy qirg'in qurollari shikastlash omillari inson organizmiga ta'sir etganda harakatlanish tartibi.

O'rganuvchilar bajara olishi kerak:

qon ketishi, turli jarohatlar, sinishlar vaqtida va kuyganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; tananing turli qismlarida jarohat olganda bog'lov vositalarini qo'llay olishi; tananing turli qismlari ochiq va yopiq singan vaqtda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; quyosh va issiq urganda, inson tanasi muzlab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; sudralib yuruvchi va boshqa zaharli jonzotlar chaqqanda, zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

USLUBIY KO'RSATMALAR

Mashg'ulotning nazariy qismi mavzuga oid o'quv qo'llanmalar, plakatlar, maketlar, tibbiyot va texnik anjomlari bilan jihozlangan xonada o'tiladi. Mashg'ulotning amaliy qismi, xususan, birinchi yordam ko'rsatish

savollari maxsus tayyorgarlikka ega tibbiyot xodimlari tomonidan tibbiyot muassasalarida o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-Mavzu: Anatomiya va fiziologiya asoslari

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). To'qima va terilar, ovqat xazm qilish, nafas olish, qon aylanish organlar sistemi. Nerv sistemi va sezish organlari.

2-Mavzu: Dorishunoslik. Tibbiy ta'minot

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Xarbiy dorixonani ish faoliyatini va dori tayyorlashni tashkil etish. Dori-darmonlarni inson tanasiga ta'siri. Mikroblarga va parazitlarga qarshi vositalar. Parazitlarga qarshi vositalarning teri kasalligini davolashda qo'llanishi.

2-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Asosan markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiluvchi moddalar. Bog'lam turlari, Yopishtiruvchi vositalar. Kasalxonalarda dori-darmonlarni xisobga olish, saqlash va ularni bemorlarga tarqatish tartibi. Sanitar sumkasi, sanitar instruktor sumkasi, shaxsiy aptechka.

3-Mavzu: Jarohatlanganda (yaralanganda), shikastlanganda birinchi tibbiy yordam

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Antiseptika va aseptika Xirurgik instrumentariy. Jarohatlar, ommaviy qirg'in qurollari qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam. Jarohatlarni bog'lash

2-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Qon ketganda birinchi tibbiy yordam Suyak singanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari.

3-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Ko'z jarohatlanganda (yaralanganda), shikastlanganda birinchi tibbiy yordam

Burun, quloq, tomoq jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam

Lat yeganda, ichki a'zolarining yopiq zararlanishida, paylarning cho'zilishida va suyaklarning chiqishida birinchi tibbiy yordam

4-Mavzu: Ommaviy qirg'in qurollari qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam.

1-mashg'ulot. (nazariy 1 soati). Yadroviy qurol qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam. Kimyoviy qurol qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam.

5-Mavzu: Kuyganda, bahtsiz hodisalar yuz berganda birinchi tibbiy yordam.

1-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Kuyganda, sovuq olganda, muzlaganda, elektr toki va yashin urganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

2-mashg'ulot. (amaliy 1 soati). Organizmda kislorod tanqisligiga, ilon va zaxarli gazandalar chaqib olganda bahtsiz hodisalarga olib keluvchi sabablarda birinchi tibbiy yordam.

6-Mavzu: Asosiy kasalliklar va ularni davolash

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Kasal turlari, kelib chiqish sabablari

2-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Kasallik jarayoni. Nafas olish yo'llarining xastalanishi, qon aylanish a'zolari, tomirlarning xastalanishi va boshqa kasalliklar

7-Mavzu: Bemorlarga qarash, tibbiy muolajalarni bajarish

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Bemorlarni statsionar davolashga qabul qilish. Shikastlanganlar va bemorlarni lazaretga joylashtirish (oddiy va dala sharoitlarida) Bemor va shikastlanganlarga qarash shifokorning asosiy ko'rsatmalarini bajarish.

8-Mavzu: Harbiy gigiena asoslari.

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Shaxsiy gigiena. Ovqatlanish gigienasi.

2-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Qo'shnlarni suv bilan ta'minlash gigiyenasi. Xavo gigienasi.

9-Mavzu: Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya asoslari.

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Epidemiya, ularning paydo bo'lishi shartlari va ularga qarshi kurash.

Epidemiologiya va ayrim yuqumli kasalliklarni oldini olish.

10-Mavzu: Sanitar instruktorining vazifasi va majburiyatlari

1-mashg'ulot. (*nazariy 1 soati*). Sanitarlar, xarbiy qism sanitar instruktori. Sanitar va xarbiy qism sanitar instruktorini yakka tartibda tayyorlash va jixozlash. Yaradorlarni qidirish va ularni jang maydonidan olib chiqish.

11-Mavzu: Nazorat ishi.

1-mashg'ulot. Nazariy (1soat). O'tilgan mavzu yuzasidan nazorat (yozma) ish.

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash.

O'quv dasturi davomida o'tkazilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. O'R QK ichki xizmat nizomi.
2. O'R QK intizom nizomi.
3. O'R QK garnizon va qorovul xizmati nizomi.
4. O'R QK saf nizomi.
5. Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar Nizomi 3-qism.
6. Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar to'plami.
7. «Taktika» o'quv qo'llanma.
8. "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" bo'yicha o'quv qo'llanma (10 va 11 sinflar).
9. Otish tayyorgarligi bo'yicha qo'llanma (avtomat, pulemyot, pistolet, granatomyot).
10. Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar to'plami.
11. "Otish tayyorgarligi" Qo'llanma. 1-2 qism.
12. "Motoo'qchi bo'linmalarini otish tayyorgarligidan o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.
13. "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" bo'yicha o'quv qo'llanma (10 va 11 sinflar).
14. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Saf nizomi.
15. Saf tayyorgarligi uslubiyati.
16. Saf tayyorgarligi (o'quv qo'llanma).

17. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” bo‘yicha o‘quv qo‘llanma (10 va 11 sinflar).
18. Siyosiy tarix doirasida harbiy san‘at tarixi.
19. O‘zbekiston xalqlarining tarixi.
20. Jaloliddin Manguberdi.
21. Temur tuzuklari.
22. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” bo‘yicha o‘quv qo‘llanma (10 i 11 sinflar).
23. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar Nizomi 3-qism.
24. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar tayyorgarlik bo‘yicha me‘yorlar to‘plami.
25. Harbiy topografiyadan qo‘llanma.
26. «Taktika» o‘quv qo‘llanma.
27. Otish tayyorgarligi bo‘yicha qo‘llanma (avtomat, pulemyot, pistolet, granatomyot).
28. Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar tayyorgarlik bo‘yicha me‘yorlar to‘plami.
29. “Otish tayyorgarligi” Qo‘llanma. 1-2 qism.
30. “Motoo‘qchi bo‘linmalarini otish tayyorgarligidan o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma.
31. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” bo‘yicha o‘quv qo‘llanma (10 va 11 sinflar).
32. Harbiy-tibbiy tayyorgarlik (o‘quv qo‘llanma).
33. “Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoyalaniş usullari” o‘quv qo‘llanmasi.
34. Jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha qo‘llanma (NFP-2012).